| | |
|---|---|
| TASDIQLANGAN<br>‹‹KORONA›› MChJ QK MMT<br>Direktori U.N. Sabirovning<br>2025 yil «02» oktyabr dagi<br>46-П/25-sonli Buyrug'i bilan | УТВЕРЖДЕНЫ<br>Приказом № 46-П/2025 от<br>02.10.2025<br>Директор СП ООО МФО<br>‹‹KORONA››<br>Сабиров У.Н. |
| SHAXSIY MA'LUMOTLARNI ISHLASH UCHUN ROZILIKNING ELEKTRON SHAKLI | ЭЛЕКТРОННАЯ ФОРМА СОГЛАСИЯ НА ОБРАБОТКУ ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ |
| Ushbu orqali men ‹‹KORONA›› Mikromoliya tashkiloti Mas'uliyati cheklangan jamiyati Qo'shma korxonasiga (bundan buyon matnda – ‹‹KORONA›› MChJ QK MMT, STIR: 306612784, joylashgan manzili: 100007, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yashnobod tumani, Parkent ko'chasi, 170-uy) mazkur rozilikda belgilangan tartibda va shartlarda o'z shaxsiy ma'lumotlarimni ishlash uchun rozilik beraman va bunday rozilikni berishda men erkin, ongli ravishda, o'z xohish-istagim bilan va o'z manfaatlarimda harakat qilayotganligimni tasdiqlayman. | Настоящим, я, предоставляю согласие на обработку моих персональных данных Совместному Предприятию Обществу с ограниченной ответственностью Микрофинансовая организация ‹‹KORONA›› (далее – СП ООО МФО ‹‹KORONA››, ИНН 306612784, адрес места нахождения: 100007, Республика Узбекистан, г. Ташкент, Яшнабадский район, улица Паркент, дом 170) в порядке и на условиях, изложенных в настоящем согласии и подтверждаю, что, предоставляя такое согласие, я действую свободно, сознательно, в своей воле и в своем интересе. |
| Mazkur rozilik maqsadlarida shaxsiy ma'lumotlarga quyida qayd etilgan maqsadlarda kerakli shaxsiy ma'lumotlar sub'ekti sifatida menga bevosita yoki bilvosita daxldor bo'lgan axborot, shu jumladan ‹‹KORONA›› MChJ QK MMT saytida murojaatnomani rasmiylashtirishda men taqdim qilgan axborot tegishli:<br>• familiyasi, ismi va otasining ismi;<br>• tug'ilgan sana;<br>• mobil telefon raqamlari;<br>• elektron pochta manzili;<br>• pochta manzili (u taqdim qilingan holatda);<br>• ro'yxatdan o'tkazish manzili (u taqdim qilingan holatda);<br>• quyida qayd etilgan maqsadlarni bajarish uchun ‹‹KORONA›› MChJ QK MMTga men taqdim qilgan boshqa axborot (shu jumladan, biroq cheklanmagan holda, boshqa ma'lumotlar va hujjatlar tarkibi). | Для целей настоящего согласия к персональным данным относится информация, прямо или косвенно относящаяся ко мне, как субъекту персональных данных, которая необходима в указанных ниже целях, в том числе предоставленная мной при оформлении обращения на сайте СП ООО МФО ‹‹KORONA››:<br>• фамилия, имя и отчество;<br>• дата рождения;<br>• номер мобильного телефона;<br>• адрес электронной почты;<br>• почтовый адрес (в случае его предоставления);<br>• адрес регистрации (в случае его предоставления);<br>• иная информация (в частности, но не ограничиваясь, иные данные и содержание документов), |

| | |
|---|---|
| | предоставленная мной в СП ООО МФО ‹‹KORONA›› для выполнения ниже указанных целей. |
| Men ‹‹KORONA›› MChJ QK MMT https://korona.uz saytida men tomondan tuzilgan murojaatnomani ko'rib chiqish maqsadida, shu jumladan, biroq cheklanmagan holda, murojaatnomani ko'rib chiqish davomida yuzaga keladigan savollarga va/yoki ma'lumotlarga aniqlik kiritish, murojaatnoma doirasida izohlar olish, murojaatnomaga javob olish va h.k. maqsadida ‹‹KORONA›› MChJ QK MMT tomonidan o'z shaxsiy ma'lumotlarim ishlanishiga rozilik beraman. | Даю согласие на обработку СП ООО МФО ‹‹KORONA›› своих персональных данных в целях рассмотрения обращения, сформированного мной на сайте СП ООО МФО ‹‹KORONA›› https://korona.uz, в том числе (но не ограничиваясь) в целях уточнения информации и/или вопросов, возникающих в ходе рассмотрения обращения, получения разъяснений в рамках обращения, получения ответа на обращение и т.д. |
| Men tomondan qayd etilgan mobil telefon raqami va elektron pochta manzili uyali aloqa operatori tomonidan menga ajratilgan shaxsiy telefon raqamim va o'z qo'lim bilan ro'yxatdan o'tkazilgan elektron pochta manzilim ekanligini, men tomondan qayd etilgan pochta manzili orqali buyurtma yoki oddiy pochta jo'natmasi bo'yicha yetkazib beriladigan xat-xabarlardan esa uchinchi shaxslarda foydalanish huquqi yo'qligini va men tomondan mazkur Rozilikda noto'g'ri ma'lumotlar yoki uchinchi shaxsga tegishli ma'lumotlar qayd etilganligi tufayli yetkazilishi mumkin bo'lgan har qanday zararni to'liq hajmda qoplashga tayyorligimni tasdiqlayman. | Подтверждаю, что указанный мной номер мобильного телефона и адрес электронной почты являются моим личным номером телефона, выделенным мне оператором сотовой связи, и собственноручно зарегистрированным адресом электронной почты, а к корреспонденции, доставляемой по указанному мною почтовому адресу заказным или простым почтовым отправлением, не имеется доступа у третьих лиц, и готов(а) возместить в полном объеме любой ущерб, который может быть причинен в связи с указанием мной некорректных данных или данных принадлежащих третьему лицу в настоящем Согласии. |
| ‹‹KORONA›› MChJ QK MMT tomonidan telefon raqamidan foydalanilgan holda (axborot-kommunikatsiya servislaridan va (yoki) tezkor elektron xabarnomalar bilan almashinuv dasturlaridan (messendjerlardan) foydalanilgan holda telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish, qisqa matnli xabarnomalarni yuborish, elektron xabarnomalarni yuborish orqali), elektron pochta manzili orqali, ijtimoiy tarmoqlarda, shuningdek PUSH-xabarnomalarini yuborish orqali menga ko'rsatiladigan mikroqarz taqdim qilish xizmatlari doirasida ‹‹KORONA›› MChJ QK MMT tomonidan va/yoki ‹‹KORONA›› MChJ | Даю согласие на обработку (сбор, систематизацию, накопление, хранение, использование) СП ООО МФО ‹‹KORONA›› своих персональных данных с целью получения информационных сообщений об услугах (продуктах) и мероприятиях, оказываемых/проводимых СП ООО МФО ‹‹KORONA›› и (или) партнерами (контрагентами) СП ООО МФО ‹‹KORONA›› в рамках оказываемых СП ООО МФО ‹‹KORONA›› услуг предоставления займа с использованием |

| | |
|---|---|
| QK MMT sheriklari (kontragentlari) tomonidan ko’rsatiladigan / o’tkaziladigan xizmatlar (mahsulotlar) va chora-tadbirlar to’g’risida axborot xabarnomalarini olish maqsadida o’z shaxsiy ma’lumotlarim ‹‹KORONA›› MChJ QK MMTtomonidan ishlanishi (to’planishi, tizimlashtirilishi, jamlanishi, saqlanishi, ishlatilishi) uchun o’z roziligimni bildiraman. | номера телефона (путем совершения телефонных звонков, направления коротких текстовых сообщений, электронных сообщений с использованием информационно-коммуникационных сервисов и (или) программ обмена мгновенными электронными сообщениями (мессенджеров)), по адресу электронной почты, в социальных сетях, а также направления PUSH-уведомлений. |
| ‹‹KORONA›› MChJ QK MMT tomonidan mazkur Rozilikda belgilangan maqsadlarda va uchinchi shaxslar tomonidan shaxsiy ma’lumotlarni ishlashda O’zbekiston Respublikasining shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi va xavfsizligini ta’minlash to’g’risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilinishi shartlarida mening shaxsiy ma’lumotlarimni ishlash topshirilishi, shu jumladan saqlanishi uchun (shaxsiy ma’lumotlarni transchegaraviy uzatish imkoniyati bilan) uchinchi shaxslar, aynan esa: «ZOLOTAYA KORONA» (Oltin toj) YoAJ (Asosiy davlat ro’yxatidan o’tkazish raqami: 1025402453438, yuridik manzili: Novosibirsk shahri, Kirov ko’chasi, 86) shartnoma asosida jalb qilinishiga o’z roziligimni bildiraman. | Выражаю свое согласие на привлечение СП ООО МФО ‹‹KORONA›› на договорной основе третьих лиц (с возможностью трансграничной передачи персональных данных) для поручения обработки, в том числе – хранения, моих персональных данных в указанных в настоящем согласии целях и на условиях соблюдения данными лицами требований законодательства Республики Узбекистан об обеспечении конфиденциальности и безопасности персональных данных при их обработке, а именно: ЗАО «ЗОЛОТАЯ КОРОНА» (ОГРН: 1025402453438, юридический адрес: город Новосибирск, улица Кирова, 86). |
| O’z shaxsiy ma’lumotlarimni ishlash va ulardan foydalanish uchun bergan roziligim yozma shakldа ariza yuborish orqali kelgusi xabardor qilish va o’zaro hamkorlik rad etilgungacha amal qiladi. | Данное мною согласие на обработку и использование моих персональных данных действует до отказа от дальнейшего информирования и взаимодействия путем направления письменного заявления. |
| Mazkur rozilikni ‹‹KORONA›› MChJ QK MMTga 100007, O’zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yashnobod tumani, Parkent ko’chasi, 170-uy manzil bo’yicha pochta jo’natmasi yordamida oddiy yozma shaklda ariza yuborish yoki men va ‹‹KORONA›› MChJ QK MMT o’rtasida mikroqarz shartnomasi tuzilgan holatda, shartnomaning alohida shartlarida belgilangan usulda ariza yuborish orqali qaytarib olishim mumkin. | Настоящее согласие может быть мною отозвано путем направления заявления в СП ООО МФО ‹‹KORONA›› в простой письменной форме посредством почтового отправления по адресу: 100007, Республика Узбекистан, г. Ташкент, Яшнабадский район, улица Паркент, дом 170, или в случае, если между мной СП ООО МФО ‹‹KORONA›› заключен договор микрозайма, путем направления заявления |

| | |
|---|---|
| | способом, установленным индивидуальными условиями договора. |